

TA'LIM- TARBIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

**Sapayeva Gulnoza Azimboyevna
O'zbekiston, Navoiy innovatsiyalar universiteti o'qituvchisi**

Annotatsiya Hozirgi axborot texnologiyalar davrida innovatsion va elektron dasturlardan foydalanish nafaqat IT sohasida, balki ta'lif tizimida ham o'z o'rmini topib bormoqda. Buning natijasida bir tomondan talabalar va professor -oqituvchilarning kompyuter savodxonligini oshirish imkonini beradi. Bundan tashqari, oqish va oqitishning ilg'or usullari , o'quv jarayonini oliv ta'lifni innovatsion rivojlanishi uchun axborot - kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: pedagogik dasturiy vositalar, pedagogik qobiliyat innovatsion metodlar, global internet kompyuter tarmog'i,zamonaviy axborot texnologiyalari, interfaol muloqot.

ADVANTAGES OF USING INFORMATION TECHNOLOGIES IN IMPROVING EDUCATIONAL EFFICIENCY

Annotation: In today's era of information technologies, the use of innovative and electronic programs is finding its place not only in the IT sector, but also in the education system. As a result, on the one hand, it allows to improve the computer literacy of students and professors. In addition, advanced methods of teaching and learning, the use of information and communication technologies for the innovative development of the educational process in higher education are discussed.

Key words: pedagogical software tools, pedagogical skills, innovative methods, global Internet computer network, modern information technologies, interactive communication.

ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: В современную эпоху информационных технологий использование инновационных и электронных программ находит свое место не только в сфере ИТ, но и в системе образования. В результате, с одной стороны, это позволяет повысить компьютерную грамотность студентов и преподавателей. Кроме того, обсуждаются передовые методы преподавания и обучения, использование информационно-коммуникационных технологий для инновационного развития образовательного процесса в высшей школе

Ключевые слова: педагогические программные средства, педагогическое мастерство, инновационные методы, глобальная компьютерная сеть Интернет, современные информационные технологии, интерактивное общение.

Xalqimizning ertangi kuni qanday bo‘lishi farzandlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liq Kelajak yoshlarimizning qo‘lida..

Sh.M.Mirziyoyev

Ta‘lim jarayonini innovatsion metodlardan foydalanib tashkil etish uchun, avvalo, darsning rejasi va loyihasi aniq ishlab chiqilishi zarur. Dars loyihasini tuzishda o‘qituvchi o‘zining ish shakllari va o‘quvchilarning ko‘nikmani egallash jarayonidagi ishlari doirasini aniq belgilab olishi lozim.

O‘zbekiston respublikasi hukumati tomonidan oily ta’lim sohasi bo‘yicha o‘rtaga qo‘yilayotgan vazifalarni bajarish ko‘p jihatdan o‘qituvchi shaxsiga bog‘liq. O‘qituvchilik sharafli, lekin juda murakkab kasbdir. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida ta’lim tarbiyadan ko‘zda tutilayotgan maqsadga erishish talabalarning xil faoliyatini uyushtirish , ularni bilimli , odobli, e‘tiqodli, mehnatkash, ishbilarmon, barkamol inson qilib o‘stirish o‘qituvchi zimmasiga yuklatilgan. Xalqimizning kelajagi, O‘zbekistonning istiqboli ko‘p jihatdan o‘qitivchiga uning saviyasi, tayyorgarligi, fidoyiligiga , yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash ishiga bo‘lgan munosabatiga bog‘liq. Yaxshi o‘qituvchi bo‘lish uchun pedagogik nazariyani egallashning o‘zigma yetarli emas. Hozirgi kunga kelib, kompyuter savodxonligi madaniyatning muhim belgisiga aylanib ulgurdi, keljakda esa u har bir insonga qayerda qaysi uchastkada ishlamasin zaruratga aylanadi. Demak, kompyuter ishi kompyuterdan foydalanishga o‘rgatish yaqin vaqt ichida umumiy ishga aylanishi shubhasiz. [2]

Ta‘limda zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etilishi:

- . fan sohalarini axboratlashtirishni ;
- . o‘quv faoliyatini intellektuallashtirishni;
- . integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishni;

ta‘lim tizimi infra tuzilmasi va uni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga olib keladi.

Ta‘limda ijobjiy natijalarga erishish, eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilim asoslarini puxta o‘rgatish, ularda dunyoqarash hamda tafakkur ko‘lamini kengaytirish, ma’naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirish borasidagi ta’limiy-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish bilan belgilanadi. Bu borada ta‘lim-tarbiya jarayoniga ko‘plab o‘zgartirishlar kiritilmoqda, yangicha yondoshuvlar tadbiq etilmoqda. Shulardan birisi, axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanib dars o‘tishda mashg‘ulotlar samaradorligini oshirishga erishish hisoblanadi.[1]

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublardan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish va e'tibor kundan – kunga kuchayib bormoqda. Ma'lumki, ta'lim – tarbiya uzlusiz, muayyan maqsadga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, unda barkamol shaxsni shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Demak, pedagogik jarayonning asoiy maqsadi barkamol inson shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iboratdir. Yurtimizda barcha tarmoqlar kabi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ham jadallik bilan rivojlanib borishi pedagoglar oldiga yangidan – yangi vazifalarni yuklamoqda. Ushbu tarmoqni yetuk malakali kadrlar bilan ta'minlash zamon talabi bo'lib, ta'limda axborot texnologiyalarini qo'llash pedagogdan quyidagilarni bilishni talab qiladi: axborotdan jarayon sifatida bilim olish va ijod qilish; fan-texnika va madaniyatdagi axborot va kreativ jarayonlar; axborotda jamiyatni rivojlantirish muammolari; sun'iy intellektning axborot tizimlari va bilim berish usullari; axborotlashning texnik vositalari va telekommunikatsiya vositalari; o'quv materiallari haqida axborotli ma'lumot tizimini bilish va qo'llay olish; universal va muammoli-masofali axborot texnologiyalarini amalga oshirishning dasturiy vositalari haqida tasavvurga ega texnologiyalarni; axborotni modellashtirish asoslari; o'qitish va nazorat qilishning avtomatlashtirish tizimi; global internet kompyuter tarmog'idan foydalanish; o'quv jarayonida amaliy dastur paketlarini qo'llash; o'quv jarayonida elektron pochtadan foydalanish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lish; mustaqil ishslash, o'zlashtirish va mustahkamlash uchun savollar to'plamini ishlab chiqish; bilimni sinash uchun test savollarini tuzish, sinov va imtihonlarni o'tkazish; o'quv mashqlarini bajarish, ketma-ketligini nazorat qilish va baholash shakllarini aniqlash; o'qitish natijalarini tahlil qilish va takomillashtirish bo'yicha taklif berish; nazorat ishlarini o'tkazish. Zamonaviy axborot texnologiyalarning jadal taraqqiy etib, ta'lim sohasiga jadal kirib kelishi, hayotimizda muhim ahamiyatga ega bo'lib borayotgani bu boradagi bilim va malakalarimizni ham mos ravishda shakllantirishni taqozo etadi. Dars jarayonining muhim yutuqlaridan biri kompyuter texnologiyalari komponentlaridan foydalanishni ta'minlovchi dasturiy vositalarning yaratilishi bo'ldi. Ayniqsa, o'quv jarayonining tashkil qilishda bu dasturiy vositalar alohida ahamiyatga ega. Elektron qo'llanmalarning "Macromedia Flash", "GIF Animation", "Microsoft Front Page", "Adobe Photoshop", "3D Max", "Microsoft Power Point" kabi dasturiy vositalardan foydalanib yaratilganligi qulaylik tug'dirmoqda. Chunki ular harakatli, rangli, ovozli tasvirlar yaratish imkonini beradi. Bu esa boshlang'ich sinf o'quvchilarining mavzuni tez tushunib olishga, o'zlashtirish sifatini oshishiga yordam beradi.[1]

Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilganda mashg'ulotlar talabalar egallayotgan bilimlarni o'zları qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zları chiqarishlariga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi.

Ta’limda yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ta’limning butun jarayonini aniq reja asosida tashkil qilish hamda o‘quv jarayonini maqsadga ko‘ra indivudallashtirishni nazarda tutadi.

Har bir darsda o‘quvchi bir-biriga o‘xshamagan dunyoga kirib borishi kerak.Buning uchun dars jarayonida foydalanilgan interfaol usullar o‘quvchi bilan o‘qituvchi orasidagi faollilikni oshirib, o‘zaro harakat ta’sir ostida bilimni o‘zlashtirishni kafolatlaydi. Bu borada guruhlarga bo‘lib dars o‘tish, bahsmunozarali darslarni tashkil etish,o‘quvchi imkoniyatlaridan foydalanish uchun zamin yaratadi.

Dars jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanganda esa o‘quvchi go‘yoki bugungi o‘tilayotgan mavzu ishtirokchisidek o‘zini tasavvur etadi va mavzuning mazmun –mohiyatini chuqr anglab oladi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan yana biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni tahsil oluvchilarga yetkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, tahsil oluvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma hamda malakalar darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Egamberdiyeva N.M. “Ijtimoiy pedagogika“ -T:A.Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.2009 y.
2. Mirziyoyev Sh.M.Buyuk kelajagimizni mard va olilianob xalqimiz bilan birga quramiz.“ O‘zbekiston“2017y.
3. Hasanboyev J.va boshqalar.Pedagogika-T:2011 y.
4. Kubayeva M. B. IMPLEMENTATION OF VISUAL-DIDACTIC GAMES IN ECOLOGICAL EDUCATION OF STUDENTS OF PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES. –2022. –T. 3. – No. 01. –C. 1-4.13.
5. Кубаева М. Visual technologies based on the principles of demonstration is the foundation for pre-schoolers“ education //in Library. –2022. –T. 22. – No. 2. –C. 189-200.
6. Кубаева М. Ekologiktarbiya berishda vizual texnologiyalardan foydalanish //in Library. –2022. –T. 22. –No. 1. –C. 8-11.
7. Кубаева М. Секреты пробуждения любви к природе //inLibrary. –2021. – T. 21. –No. 2. –C. 51-53.
8. Kubaeva M. B. Q. THE USE OF VISUAL TECHNOLOGIES OF EDUCATION IN ECOLOGICAL EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN AS A PEDAGOGICAL PROBLEM //CURRENT

RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS. – 2021. – T. 2. – №. 06. – C. 6-10.

9. М Кубаева Maktabgacha yoshdagি bolalarga ekologik ta’lim-tarbiya berishda vizual texnologiyalarning o’rni // in Library 2021 (1), 102-105
10. М Кубаева Важность экосистемного образования для дошкольников// in Library 2022 (4), 921-926

Elektron ta’lim resurslari

1. <https://www.uzedu.uz/>
2. <http://ziyonet.uz/ru>